

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

«BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT» KAFEDRASI

5340900-“Buxgalteriya hisobi va audit” ta’lim yo’nalishi IV kurs,
B-42 guruh talabasi ZIYATOV SARDOR ZUBAYDULLAYEVICHning
“Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda moliyaviy natijalar hisobi va
Auditini takomillashtirish masalalari”
(Qarshi shahar “Gazkomservis ilmiy texnik metrologik” MCHJ misoli)
Mavzusidagi

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Bajardi:

“Buxgalteriya hisobi va audit” ta’lim
yo’nalishi bitiruvchisi IV-kurs B-41
guruh talabasi Ziyatov Srdor

Imiy rahbar:

“Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrasi mudiri
dots.O.Xushmuradov

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi
3-sonli 23.07.2011 yil

QARSHI-2010 yil

”Tasdiqlayman”
”BH va A” kafedrası mudiri
i.f.n. O.Xushmuradov

_____ 2009-yil
” ”

**MAVZU: MCHJlarda Moliyaviy natijalar hisobi va
Auditini takomillashtirish masalari
(Qarshi shahar “Gazkomservis ilmiy texnik metrologik” MCHJ misolida)**

KIRISH

I BOB. MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI VA AUDITINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.

- 1.1.Moliyaviy natijalarni to’g’ri aniqlashning ahamiyati.
- 1.2.Foyda va zararlarning tarkibi,ularni hisobga olish tartibi.
- 1.3.Foydadan foydalanishni hisobga olish va auditini tashkil etishning mohiyati

II BOB. MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATDA MOLIYAVIY NATIJALARNING HISOBGA OLIH VA AUDITINING TAKIL ETILISH HOLATI

- 2.1.Jamiyatda moliyaviy natihalar hisobining yuritilishi
- 2.2.Mas’uliyati cheklangan jamiyatda dividentlarni taqsimlash tartibi va ularni hisobga olish
- 2.3.Jamiyat daromadlaridan foydalanishni hisobga olish va auditini tashkil etish

III BOB. INQIROZDAN CHIQUISHDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI

XULOSA VA TAKLIFLAR.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

ILOVALAR.

Ilmiy rahbar:

i.f.n.O.Xushmurodov

B-42 guruh talabasi:

S.Ziyatov

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Jahonda yuz berib turgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining moliyaviy faoliyatini to'g'ri tashkil etishi global moliyaviy inqirozdan chiqish omili sifatida qaralmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonada o'zining ishlab chiqarish tijorat faoliyatidan ko'proq daromad olishidan manfaatdor hisoblanadi. Ammo nafaqat foyda, balki zarar ham korxonada xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi bo'lishi mumkin. Xo'jalik yuritishning hozirgi tizimi sharoitida foyda ko'rsatkichi korxonaning asosiy va aylanma mablag'laridan samarali foydalanishini talab etadi. Bu borada Prezidentimizning fikr-mulohazalari diqqatga sazovordir: "Biz o'z moliyamizdan ishni ko'zini bilib, ehtiyotkorona va tejab-tergab foydalanishimiz zarur. Xalq xo'jaligidagi sarflangan har bir so'm salmoqli foyda bilan qaytishi, ertangi kunga, respublika istiqboliga xizmat qilishi kerak"¹

Yuqoridagi Prezidentimizning fikrlaridan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, har bir korxonada o'z mablag'laridan tejagan holda naf keltiradigan sohalarga sarflashlariga bu esa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning muttasil daromadga ega bo'lishiga shu qatori respublikamiz byudjetining to'lishiga xizmat qilishga undashi bilan ahamiyatlidir.

Muammoni o'rganilganlik darajasi: Moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirish masalalari bo'yicha bir qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan I. Butunov, V.A. Chjen, Yu.S. Maslechenkovlarning ilmiy ishlari yoritib berilgan.

Respublikamiz olimlaridan O'. Sharifxo'jayev, B. Hasanov, T. Malinov, B. Hamdamov, A. Yuldoshev, I. Sirojiddinov, N. Haydarov, F. Otaxonov, M. Umarova, E. Eshboyev, K. Axmadjonov, R. Do'stmurodov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida qayd etib o'tilgan.

Shunga qaramasdan, moliyaviy natijalar hisobi va auditini tashkil etish muammolarini takomillashtirish ishlari o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Bitiruv malakaviy ishing maqsadi: Moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirishning nazary-huquqiy asoslari mohiyatini ochi berish, mavjud sohadagi muammolarni yoritish, jamiyat daromadlari va xarajatlarini taqsimlanishini tahlil etish, moliyaviy mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirishni takomillashtirish borasida fikrlarni bildirishdan iborat:

Bu maqsadga erishish uchun ilmiy izlanishning oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- Moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlashning ahamiyatini yoritib berish;
- Foyda va zararlarning tarkibi, ularni hisobga olish tartibini ochib berish;
- Foydadan foydalanishni hisobga olish va auditini tashkil etishning mohiyatini yoritish;
- Aksiyadorlik jamiyatda moliyaviy natijalar hisobining yuritilishini yoritib berish;
- Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda dividendlarni taqsimlash tartibi va ularni hisobga olish;
- Jamiyat daromadlaridan foydalanishni hisobga olish va auditini tashkil etish va boshqalar.

Ilmiy yangilik quyidagilardan iborat:

- Korxonada o'zining eskirgan asbob-uskunalarini almashtirish choralarini ko'rish kerak;
- O'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda issiqxona tashkil etish orqali yordamchi ishlab chiqarish turini yo'lga qo'yish lozim;
- Davr xarajatlarini tejash chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiqligini ochib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti: Qarshi shahar "gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJda moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy-uslubiy asoslari: O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan qaror, farmon va farmoyishlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asari va boshqa asarlari, Moliya vazirligi va boshqa yuqori tashkilotlarning me'yoriy hujjatlar, ilmiy asarlar, internet veb saytlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ish natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: bitiruv malakaviy ishida oldinga surilgan amaliy xarakterdagi taklif va mulohazalar quyidagilardan iborat:

- Hissadorlik jamiyatda noliyaviy mablag'lardan foydalanishda ayrim mavjud muammolarni hal etishda yordam beradi;
- Talabalarning o'quv jarayoni sifatli tashkil etishda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi;
- Talabalarga mustaqil fikrlash qobiliyati va qaror qabul qilish san'ati rivojlanadi.

Bitiruv malakaviy ishning tizimi va hajmi: bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi ___ betdan iborat bo'lib, uning tarkibiga rasm, jadval, chizma va ilovalar kiritilgan.

I BOB. MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI VA AUDITINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlashning ahamiyati.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonada o'zining ishlab chiqarish –tijorat faoliyatidan ko'proq daromad olishidan manfaatdor.

Xo'jalik yuritishning hozirgi tizimi sharoitida foyda ko'rsatkichi korxonaning asosiy va axborot mablag'laridan samarali foydalanishni talab hamda ehtiyojga qarab ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish, ya'ni ishlab chiqarilayotgan mahsulot iste'molchi talabiga javob bera oladigan bo'lishi, ishlab chiqarish xaridor uchun xizmat qilishi lozim. To'la xo'jalik hisobining muhim tamoyili korxonaning to'la mustaqillikka erishuvi va xarajatlarni o'z mablag'i hisobidan to'liq qoplashdir. Bu degani, korxonada mahsulot sotishdan olgan mablag'idan o'zining hamma xarajatlarini qoplaydi va undan tashqari foyda ham oladi. Foydaning bir qismi byudjetga soliqlar hamda boshqa to'lovlarni to'lash uchun sarflanadi, qolgani esa korxonada ixtiyorida qoladi va faoliyatini ilmiy texnik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi. Korxonada ixtiyorida qolgan mablag'ni qanday maqsadlarga sarflashni uning o'zi mustaqil ravishda hal qiladi.

Moliyaviy natija bu korxonada, birlashma, hissadorlik jamiyati va hokozolarning ma'lim hisobot davrida, uning tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarshili mablag'ning oshishi (yoki kamayishi) tushuniladi. Buxgalteriya hisobida bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi hamma foydalar va zararlarni hisobga olish uchun shu nomdagi schyotdan foydalaniladi. Bu schyot aktiv-passiv schyot bo'lib, qoldiq uning debet va kredit tomonida bo'lishi mumkin. Debet tomonidagi qoldiq zararni, kredit tomonidagi qoldiq esa foydani ifodalaydi.

Foyda qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i sof daromadning shakllari bo'lib hisoblanadi. Ularning har biri tashkil topish mexanizmi va ulardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i davlat byudjetiga mahsulot sotilganidan so'ng o'tkaziladi, bu mablag' umumdavlat hamda umumxalq maqsadlari uchun sarflanadi.

Foyda korxonaning oxirgi moliyaviy natijasi hisoblanadi. U mehnatga haq to'lash fondi bilan birga (foydaning korxonada ixtiyoriga qolgan qismi) korxonada daromadini tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida foyda ko'rsatkichini to'g'ri aniqlash juda muhim ahamiyatga ega. Mazkur daromad hisobidan mazkur maqsadlarga mo'ljallangan fondlar, rezerv fondi tashkil bo'ladi, kapital qo'yilmalar moliyalashtiriladi va ijtimoiy tadbirlar amalga oshiriladi.

Moliya natijalari miqdoriga juda ko'p omillar ta'sir etadi. Masalan, inflyatsiya, valyutaning o'zgarib turishi, kredit siyosati va boshqalar. Ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi yuqorida sanab o'tilgan omillar ta'siri hisobga olingan holda moliya natijalari aniqlanishi, aniqlangan moliya natijasi haqiqatni aniq va to'g'ri aks ettirishi lozim. Foyda miqdorining kamayishiga va o'z navbatida, byudjet hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar miqdorining kamayishiga olib keladi. Zararga ishlaydigan korxonalar esa oxir-oqibatda "sinadi", ya'ni inqirozga yuz tutadi. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida amaldagi qonunlarga ko'ra yaxshi ishlamaydigan korxonalar foydasini qayta taqsimlash ko'zda tutilmagan. Shuning uchun zararga

ishlaydigan korxonalar o'z xarajatlarini o'zlari qoplashlari, buning uchun uni qoplash yo'llarini izlab topishlari kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy natijalarni hisobga olish korxonada markaziy o'rinni egallamaydi va qo'yidagilar uni hisobga olishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- 1) Olinganfoyda miqdorini har oyda hamda yil boshidan o'z vaqtida va to'g'ri hisob- kitob qilish;
- 2) Moliya natijalari bilan bog'liq operatsiyalarni va ularning taqsimlanishini buxgalteriya hisobi schyotlarida va tegishli registrlarda to'g'ri aks ettirilishi;

1.2.Foyda va zararlarning tarkibi,ularni hisobga olish tartibi.

Yakuniy moliyaviy natija hisobot davrida korxonada buxgalteriya hisobida hisobga olingan hamma operatsiyalar asosida aniqlanadi. Korxonada balansida ko'rsatiladigan moliyaviy natija, ya'ni sof foyda uch qismdan iborat bo'ladi:

- 1) Asosiy mahsulot, ish va xizmatlar realizatsiyasidan olinadigan moliyaviy natija (9010-"Tayyor mahsulotlarni sotishdan olinadigan daromad" schyoti ma'lumotlari asosida aniqlanadi);
- 2) Asosiy va boshqa aktivlar (material boyliklar, qimmatli qog'ozlar, nomaterial aktivlar va boshqa moliya qo'yilmalari) realizatsiyasidan olingan natija (9310-"asosiy vositalarning realizatsiyasi va boshqa ko'rinishdagi hisobdan chiqarishlar" va 9320-"Boshqa aktivlar realizatsiyasidan va boshqa hisobdan chiqarishlardan olingan foyda" schyotlari ma'lumotlari asosida aniqlanadi);
- 3) Realizatsiya bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olingan moliyaviy natija (realizatsiya bilan bog'liq bo'lmagan daromad va nobudgarchiliklar to'g'ridan-to'g'ri "Moliyaviy natijalar" schyotida aniqlanadi).

Ishlab chiqarish korxonalarida yalpi (balans) foydasi tarkibida asosiy o'rinni mahsulot, ish va xizmatlar realizatsiyasidan olinadigan foyda tashkil qiladi. Bu foyda 3 guruh omillari ta'sirida tarkib topadi.

- 1) Sotilgan mahsulotning hajmi va turi (assortimenti);
- 2) Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar darajasi;
- 3) Sotilgan mahsulotning baho darajasi.

Realizatsiya bilan bog'liq bo'lmagan daromad, xarajat va nobudgarchiliklarga quyidagilar kiradi:

- 1) Hamkorlikdagi korxonalarda daromaddan olinadigan ulush mulkni ijaraga berilganligi uchun olinadigan daromad;
- 2) Korxonaga qarashli aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar uchun olinadigan dividend;
- 3) Valyuta kursining ijobiy yoki salbiy farqlari (valyuta schyotlari va chet el valyuta operatsiyalari bo'yicha);
- 4) Korxonada balansida hisobda bo'lgan uy-joy komunal xo'jaligidan foydalanishdan olinadigan daromad (4110-"Alohida bo'linmalardan olinadigan schyotlar" schyoti ma'lumotlari asosida aniqlanadi);
- 5) Iqtisodiy sanksiyalar ko'rinishida olinadigan va to'lanadigan summalar (shartnoma shartlarini bajarmaganligi uchun jarima, penyalari);
- 6) Tugatilgan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha xarajatlar.

"Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq, hozirgi xo'jalik yuritish tizimi sharoitida korxonada faoliyati moliyaviy natijasi foyda ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

- 1) mahsulot sotishdan olingan foyda mahsulot realizatsiyasidan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulot tannarxi o'rtasidagi farq asosida aniqlanadi:
Yalpi foyda = real olingan sof tushum - sotilgan mahsulot tannarxi
- 2) asosiy faoliyatdan olingan foyda mahsulot realizatsiyasidan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi farqqa asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadni qo'shish yoxud ayirish yo'li bilan aniqlanadi:

Asosiy faoliyatdan olingan foyda= mahsulot realizatsiyasidan olingan yalpi foyda – davr xarajatlari + boshqa zararlar;

- 3) umumxo'jalik faoliyatdan olingan foyda (yoki zarar) quyidagi algebraik yo'l bilan aniqlanadi, asosiy faoliyatdan foydaga dividendlar bo'yicha daromad qo'shiladi, chet valyutasi operatsiyalari bilan bog'liq daromad yoki zararlar qo'shib yoxud ayiriladi va foizlar bo'yicha xarajatlar olib tashlanadi. Umumxo'jalik faoliyati foydasi= asosiy faoliyat foydasi + dividend daromadi + foizlar daromadi + investitsiyani qimmatli qog'ozga qayta baholashdan daromad yoki zarar – foizlar bo'yicha xarajatlar. Soliq tulungunga qadar foyda= umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda ± tasodifiy foyda va zararlar.
- 4) Yilning sof foydasi soliqlar to'langandan keyin korxonada ixtiyorida qoladigan ko'rsatkich. Soliqlar to'langungacha foydadan (daromaddan) soliqlar va boshqa biror yerda hisobga olinmagan soliq hamda to'lovlar chiqarib tashlanadi :

Yilning sof foydasi= soliq to'langunga qadar foyda – foydadan soliq, boshqa soliqlar.

Moliyaviy natijalarning tarkib topishi va ulardan foydalanish ” Mahsulot (ish,xizmat) tannarxiga qo'shiladigan mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va realizatsiya bo'yicha xarajatlar tarkibi haqida”gi Nizom va ”Moliyaviy natijalarning tarkib topishi tartibi haqida”gi Nizom(5-yanvar 1999-yil №54) hamda buxgalteriya hisobi Milliy standartlarining 2-3-4-sonlari bilan tartibga solinadi. Buning uchun quyidagi schyotlar mo'llallangan:

9000- ”Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadni hisobga oladigan schyotlar”.

9100- ”Sotilgan mahsulot tannarxini hisobga oladigan schyotlar”.

9200- ”Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning hisobdan chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar”

9300- ”Asosiy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlarni hisobga oladigan schyotlar”

9400-”Davri xarajatlarni hisobga oladigan schyotlar”

9500-”Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarni hisobga oladigan schyotlar”

9600-”Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni hisobga oladigan schyotlar”

9700-”Favqulodda foyda(zarar)larni hisobga oladigan schyotlar”

9800-”Soliq va to'lovlarni to'lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oladigan schyotlar”

9900-”Yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga oladigan schyotlar”

Sotilgan tayyor mahsulot, mollar, bajarilgan ish va xizmatlar tannarxi haqidagi ma'lumotlar quyidagi schyotlardan olinadi:

9110-”Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi”

9120-”Sotilgan tovarlar tannarxi”

9130-”Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi”

9140-”Takrorlanib turadigan hisobotda TMBni olish”

9150-”Takrorlanib turadigan hisobotda TMB bo'yicha tuzatishlar”

Jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar uchun xaridorlarga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlari summasiga quyidagicha buxg'alteriya provodkasi tuziladi:

9310-“Asosiy vositalar realizatsiyasidan va boshqa hisobdan chiqarishlardan olingan daromadlar”

9320-“Boshqa aktivlar realizatsiyasidan va boshqa hisobdan chiqarishdan olingan foyda”

9330-“Penya, jarima va boshqa to’lovlarni undirish”

9340-“O’tgan yil foydasi”

9350-“Qisqa muddatli ijaradan olingan daromadlar”


9360- “Kreditorlik va deponentlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar”

9370-“Xizmat ko’rsatuvchi xo’jaliklar daromadi”

9380-“Beg’araz moliyaviy yordam”

9390-“Boshqa operatsion daromadlar”;

Asosiy faoliyadan olinadigan boshqa daromadlarning tarkib topishi Buxgalteriya hisobi va Milliy Standartining “Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlar” 2-soni bilan tartibga solinadi.




Mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayoni bilan to’g’ridan-to’g’ri bog’liq bo’lmagan realizatsiya bo’yicha xarajatlar, boshqaruv xarajatlari, xizmat ko’rsatuvchi xo’jaliklar xarajatlari, boshqa operatsion xarajatlar haqidagi ma’lumotlar quyidagi schyotlar yordamida olinadi:

9410-“Sotish bo’yicha xarajatlar”

9420-“Ma’muriy xarajatlar”

9430-“Boshqa operatsion xarajatlar”


9440-“Kelgusida soliqqa tortuvchi bazadan chiqarib tashlanadigan hisobot davri xarajatlari”.



Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar quyidagi schyotlarda hisob qilinadi:

- 9510-“Royalti ko’rinishidagi daromad”
- 9520-“ Divedend ko’rinishidagi daromad”
- 9530-“Foiz ko’rinishidagi daromad”
- 9540-“Valyuta kursidan olinadigan daromad”
- 9550-“Uzoq muddatli ijaradan olinadigan daromadlar”
- 9560-“Qimmatli qog’ozlarni qayta baholash bo’yicha daromadlar”
- 9590-“Moliyaviy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlar”

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadning tarkib topishi buxg’alteriya hisobi Milliy standarining 2-sonli ”asosiy xo’jalik faoliyatidan daromadlar”, 12-sonli ”Moliyaviy investetsiyalar hisobi ” bilan tartibga solinadi.



Moliyaviy faoliyat bo’yicha xarajatlar haqidagi ma’lumotlarni quyidagi schyotlardan olishimiz mumkin:

- 9610-“Foiz ko’rinishidagi xarajatlar”
- 9620-”Valyuta kurslaridagi farqlaridan ko’riladigan zararlar ”
- 9630-”Qimmatli qog’ozlarni chiqarish va tarqatish bo’yicha xarajatlar”
- 9690-”Moliyaviy faoliyat bo’yicha boshqa xarajatlar”

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar va faoliyat bilan bog’liq xarajatlarning tarkib topishi buxgalteriya hisobi Milly Standartining 2- sonli ”Asosiy xo’jalik faoliyatidan daromadlar”, 6-sonli ”Lizing hisobi”, 12-sonli ”Moliyaviy investetsiyalar hisobi” bilan tartibga solinadi.

Moliyaviy faoliyat bo’yicha xarajatlarning schyotlarda aks ettirilishini quyida keltirishimiz mumkin:

Dt 6920	Kt	Dt 9610	Kt	Dt 9900	Kt
Bank kredeti bo'yicha foiz hisoblanadi					
asosiy vositalar uzoq muddatli bank kredeti bo'yicha salbiy kurs farqi					
Dt 6810	Kt	Dt 9620	Kt	Hisobot davri oxirida schyot yopiladi	
Chet el valyutasida olingan qisqa muddatli bank kredeti bo'yicha salbiy kurs farqi				(9610-9690)	
Dt 0610	Kt				
Yil oxirida qimmatli qog'ozlar sotib olinish qiymati bilan nominal qiymati o'rtasidagi farq summasi					

Favqulodda foyda va zararlar 9710-“Favqulodda zararlar” schyotlarida hisob qilinadi.

Bu schyotlar bilan bog'liq operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish tartibini quyida ko'rishimiz mumkin:

Dt 0710-0720	Kt	Dt 9710-9720	Kt	Dt 0710,1080	Kt
C	Tabiiy ofatdan keyin inventarizatsiya natijasida aniqlangan uskunalar kamomadi	Tabiiy ofat natijalarini tugatishdan uskunalar, arzon baholi buyumlar qabul qilindi.			
Dt 5010,5110,5210	Kt				
Tabiiy ofat xarajatlari to'landi					
Dt 6710	Kt				
Tabiiy ofatni tugatishda band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblandi					
		Dt 9720	Kt	Dt 9900	Kt
Dt 9900	Kt	Dt 9719	Kt	Hisobot davrida 9720 schyotining yopilishi	
Hisobot davri oxirida 9710 schyotining yopilishi					

Bozor munosabatlari sharoitida realizatsiya bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan keladigan daromadlar tarkibida asosiy o'rinni dividendlar va qimmatli qog'ozlar uchun olinadigan foizlar tashkil etadi. Bundan tashqari hamkorlikdagi korxonalarda korxonaning qoshgan mablag'i ulushidan kelgan daromad tashkil etadi. Realizatsiya bilan bog'liq bo'lmagan daromadlar tarkibida

yuqorida sanab o'tilgan daromad turlari moliya natijalari haqidagi buxg'alteriya hisobotida alohida hisobot shaklida beriladi, chunki bu daromad turlaridan byudjetga soliq alohida stavka bo'yicha to'lanadi.

1.3 Foydadan foydalanishni hisobga olish va auditini tasjil etishning mohiyati.

Taqsimlanmagan foyda – sof foydaning aksiyadorlar (ishtirokchilar) tomonidan taqsimlanmagan va tashkilotning ixtiyorida qolgan qismi. Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) va o'tgan yillarning jamg'arilgan foydasi (qoplanmagan zarari) bir-biridan farq qiladi. Taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar hisobi quyidagi schyotlarda yuritiladi:

8710-“Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi(qoplanmagan zarari)”

8720-“Jamg'arilgan foyda(qoplanmagan zarar)”.

Foydani taqsimlash to'g'risidagi qarorni korxonaning mulkdorlari (OAJ yoki YOAJ aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, MCHJ ishtirokchilarining yig'ilishi, xususiy korxonaga egasi) qabul qiladi.

Taqsimlanmagan foyda quyidagilarga ishlatilishi mumkin:

- Ustav kapitalini ko'paytirishga;
- Korxonalarining aksiyadorlari (ishtirokchilari)ga dividend to'lashga;
- Rezerv kapitalini tashkil etish va to'ldirishga;
- Zararlarni qoplashga;
- Mulkdorlarning qarori bo'yicha boshqa maqsadlarga;

Korxonaga taqsimlanmagan(jamg'arilgan) foydasini aks ettirish		
Xo'jalik operatsiyalari mazmuni	Debet	Kredit
Hisobot yilning taqsimlanmagan foydasi aks ettiriladi	9910	8710
Foyda hisobiga dividendlarni hisoblash aks ettiriladi	8710 8720	6610
Hisobot davri taqsimlanmagan foydasining jamg'arilgan foydaga o'tkazish aks ettirildi	8710	8720
Jamg'arilgan foyda ustav kapitalini ko'paytirishga yo'naltiriladi	8720	8300
Hisobot davrining zarari jamg'arilgan foyda hisobiga qoplanadi	8720	8710
Jamg'arilgan foyda rezerv kapitalini to'ldirishga yo'naltiriladi	8720	8520

Balans reformatsiyasi- hisobot yili mobaynida olingan foydani taqsimlash yoki yil uchun olingan zararni hisobdan chiqarish.

Balans reformatsiyasini o'tkazish har bir yangi yil boshidan o'tgan yilning moliyaviy natijalarini o'sib boruvchi yakun bilan aks ettirishning yakunlanishi bilan izohlanadi. Shuning uchun 2010-yil 1-yanvarda moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotlar o'tgan yilning yozuvlaridan "tozalangan" bo'lishi kerak.

Korxonaga faoliyatining 2009-yil mobaynidagi moliyaviy natijalari 9910-"Yakuniy moliyaviy natija" schyotida shakllanadi.

Yakuniy moliyaviy natija asosiy faoliyat bo'yicha daromadlar, moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va favqulodda daromadlardan, ushbu faoliyat turlari bo'yicha xarajatlar summasiga kamaytirilgan holda tarkib topadi.

9910-"Yakuniy moliyaviy natija" schyotining debetida xarajatlar(zararlar), kreditida esa korxonaning daromadlari(foydalari) aks ettiriladi. Hisobot davridagi debet va kredit aylanmalarni taqqoslash hisobot davrining sof foydasi (zarari)ni ko'rsatadi.

Hisobot yilining yakunlari bo'yicha yillik moliyaviy hisobot tuzish chog'ida 9910- "Yakuniy moliyaviy natija" schyoti 8710- "Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi(qoplanmagan zarari)" schyoti bilan korrespondensiyada yopiladi.

Balans reformatsiyasi 2009-yil 31-dekabr holati bo'yicha quyidagi schyotlarni yo'q qilish bilan amalga oshirish kerak:

- 9900- "Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlari"
- 9100- "Sotilgan mahsulot(tovar,ish,xizmat)larning tannarxi"
- 9300- "Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari"
- 9400- "Davr xarajatlari"
- 9500- "Moliyaviy faoliyat daromadlari"
- 9600- "Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar"
- 9710- "Favqulodda foydalar"
- 9720- "Favqulodda zararlar"
- 9810- "Soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydaning ishlatilishi"

Hisobot yilining yakunlari bo'yicha korxonada foyda olsa(ya'ni 9910-schyotining kredit tomonidagi saldo), unda hisobda bu operatsiya quyidagi jadvaldagi 10-raqamli yozuvi bilan, zarar ko'rsa, 11-raqamli yozuvi bilan aks ettiriladi.

Xojalik operatsiyalari mazmuni	Debet	Kredit
Asosiy(operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar yopilishi	9010 9020 9030	9910
Sotilgan mahsulotlarning tannarxini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi	9910	9110- 9150
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi	9310- 9390	9910
Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyot yopilishi	9910	9410- 9440
Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar yopilishi	9510- 9590	9910
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi	9910	9610- 9690
9710- "Favqulodda foyda" schyotining yopilishi	9710	9910
9720- "Favqulodda zararlar" schyotining yopilishi	9910	9720
Soliqlar va yig'imlar to'lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotlarining yopilishi	9910	9810 9820
Hisobot yilining sof foydasi hisobdan chiqariladi	9910	9710
Hisobot yilining sof zarari hisobdan chiqariladi	8710	9910

Foydani taqsimlash to'g'risida qarorni korxonada aksiyadorlari qabul qiladi.

Moliyalashning tegishli manbalari bilan qoplanmagan zararlar ham balansning 450-satr bo'yicha aks ettiriladi. Soliq solish maqsadida chegiriladigan xarajatlarning yalpi daromaddan oshishi zarar deb tan olinadi. Zararlar quyidagilar natijasida yuzaga keladi:

- Moliya xo'jalik faoliyatidan olingan zararlar
- Sof foyda hisobidan summasi tashkilot tomonidan 2009-yilda olingan zararlar.

Zararlar balansda “minus” bilan aks etiriladi.

O'tgan yilning, shuningdek joriy yilning zarari:

- rezerv kapitali(fondi)
- muassislarning maqsadli badallari hisobidan qoplanishi mumkin.

Hisobot yilining zararini qoplash bo'yicha operatsiyalar quyidagi o'tkazmalar bilan aks ettiriladi:

Hisobot yili zararlarining qoplanishi		
	Debet	Kredit
Hisobot yilining zararini rezerv kapitali mablag'lari hisobidan qoplash	8520-”Rezerv kapitali”	8710- ”Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi(qoplanmagan zarari)”
Hisobot yilining zararini ta'sischi'larning maqsadli mablag'lari hisobidan qoplash	8890-”Boshqa maqsadli tushumlar”	8710-”Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi(qoplanmagan zarari)”

Agar hisobot yilining qoplanmagan zararini qoplash uchun mavjud manbalar yetarli bo'lmasa, qoplanmagan zararni balansda qoldirish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

O'tgan hisobot davrida zarar ko'rgan korxonalar hisobot yilning soliq solinadigan daromadini ko'rilgan zararlarining to'liq summasiga yoki ushbu summaning bir qismiga kamaytirishlari mumkin. Taqsimlab o'tkazilayotgan zararining umumiy summasi joriy yidagi soliq solinadigan foydaning 50%idan oshmasligi lozim. Zararlar ular ko'rilgan hisobot yilidan keyingi 5 yil davomida ular ko'rilgan ketma-ketlikda taqsimlanib o'tkaziladi. Daromadni zararlar summasiga kamaytirish foyda solig'i hisob-kitobida faqat yil yakunlari bo'yicha amalga oshirilishi lozim.

Qoplanishi lozim bo'lgan, biroq 5 yil davomida qoplanmagan zarar summasi keyingi yillarga taqsimlanib o'tkazilmaydi, ular qoplanmay qoladi.

Chegirilmaydigan xarajatlar summasiga tuzatilgan zarar o'tkazilishi lozim(”moliyaviy natijalar to'g'risida ” 2 –son shaklining 240-satridagi summa emas).

Zararlarni o'tkazishning iqtisodiy mohiyati (imtiyoz mohiyatiga ko'ra) shundan iboratki, zarar ko'rilganda soliq to'lovchilarga avval o'z zararini so'ndirish va shundan so'ngina soliq to'lash majburiyatini bajarish imkoniyati beriladi.

Zarar yil yakunlari bo'yicha korxonaga tugal iqtisodiy faoliyatining xaqiqiy ko'rsatkichi hisoblanadi, chunki barcha daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farqni hisobga oladi. Zarar xo'jalik faoliyatini davom ettirish uchun soliq to'lovchining real o'z mablag'lari yetarli emasligini ko'rsatadi. Foyda solig'i tabiati esa ayni iqtisodiy faoliyatning yakuniy natijalariga bog'liq.

Agar korxonaga bir necha yil davomida zarar ko'rishi mumkin. Zarar ko'rilgan soliq davrlari bir bo'lib, bir bo'lmasligi ham ehtimol. Bu hollarda zararlar ko'rilgan paytiga qarab navbati bilan o'tkaziladi.

2008-yil 1- yanvardan boshlab zararlarni o'tkazish normasi soliq to'lovchi- qayta tashkil tilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisiga ham tatbiq etiladi. Bu holda u soliq solinadigan foydani qayta tashkil etilgan yuridik shaxs qayta tashkil etilguncha ko'rgan zararlar summasiga kamaytirishga haqli.

Foyda solig'i to'lashdan ozod etilgan va shu davrda zarar ko'rgan soliq to'lovchi uni kelgusi davrlarga o'tkazmasligi kerak. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2005-yil 11- apreldagi ”To'g'ridan – to'g'ri xususiy xorijiy

investetsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida " PF-3594-son farmoni bilan berilgan imtiyozlardan foydalanuvchi korxonalar zararlarini taqsimlab o'tkazishni soliqlarni to'lashdan ozod qilishning amal qilish muddati tugagandan keyin amalga oshirish mumkin, ya'ni faqat soliqlarni to'lashdan ozod qilish muddati tugagan davrdan keyingi davrdan boshlab hosil bo'lgan zarar summasiga ko'chiriladi.

3- son BHMS "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot"(AV tomonidan 27.08.1998 yilda 484-son bilan ro'yhatga olingan) korxonaning yil boshidagi taqsimlanmagan foyda qoldig'iga tuzatish kiritish imkoniyatini beradi. Bunga quyidagi ikki holda yo'l qo'yishadi :

- oldingi davrda yo'l qo'yilgan fundamental (muhim) xatolarni tuzatishda;
- korxonalar hisob siyosatidagi o'zgarishlarda.

Muhim xatolar – joriy davrda aniqlangan xatolar bo'lib, ular shu qadar muhim bo'ladiki, oldingi davrlar uchun tuzilgan moliyaviy hisobotlar ishonchli deb hisoblanmasligi mumkin. Ta'kidlash lozimki, me'yoriy hujjatlar xo'jalik yurituvchi subyektlarga amaldagi BHMS qoidalaridan kelib chiqqan holda xato yoki voqealarning muhimligini mustaqil aniqlash imkonini beradi.

Aniqlangan xatolardan tuzatish hamda soliq va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblarga o'zgartirishlar kiritish soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil amalga oshiriladi. Soliq idoralariga yo'l qo'yilgan xatoning sabablari, muhimlik mezonlari, soliq va yig'imlarni qayta hisob-kitoblar taqdim etiladi.

Ta'kidlash joizki, amaliyotda muhim xatolarga , yo'l qo'yilgan xatolarning xarakteri soliq, yig'im va majburiy to'lovlar bo'yicha tuzatilgan hisob-kitob tuzishni talab qilmagan hollardan tashqari, foyda va boshqa soliqlar bo'yicha soliq solish obyektini aniqlash tartibi bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi yo'l qo'yilgan qoida-buzarliklar (xatolar) kiradi.

Qoidaga ko'ra foyda (daromad) korxonalar tomonidan quyidagi maqsadlar uchun ishlatiladi:

- foyda (daromad) solig'ini to'lash;
- boshqaruvning tegishli qaroriga muvofiq ustav kapitaliga qo'shiladigan, o'tgan yilgi foyda hisobidan ustav kapitalini ko'paytirish;
- dividend to'lash.

Qo'shma korxonalar foydasiga keladigan bo'lsak, u byudjetga to'lanadigan summalar va zaxiralar yaratish va ularni to'ldirishga yo'naltirilgan summalar chegirib tashlangandan so'ng , qo'shma korxonalar ishtirokchilari o'rtasida ularning ustav kapitalidagi hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi, agar ta'sis hujjatlarida boshqacha tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa.

Qo'shma korxonaning xorijiy ishtirokchilariga korxonalar faoliyatidan olingan foydani taqsimlash natijasida tegishli bo'lgan, sum va chet el valyutalaridagi summalarni, shuningdek, taqsimlanmagan erkin muomaladagi valyutada olingan daromadning tegishli ulushini ularning mamlakatlariga o'tkazib berish kafolatlanadi.

Auditor korxonaning foydasi (daromadi)ni va moliyaviy holatini tekshirishda quyidagilarni puxta o'rganishi lozim: tayyor mahsulotlar, tovarlar (ishlar, xizmatlar), realizatsiyasidan olingan foydalar yoki ko'rilgan zararlar; davr sarflari, ularning asoslanganligi , tasdiqlangan smetaga muvofiqligi va moliyaviy natijaga ta'siri.

Bunda, jumladan, quyidagilarni tahlil qilish zarur: asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishi (bino va inshootlarni buzish va bo'laklash, qurilmalarni demontaj qilish va shunga o'xshashlar), asosiy vositalarni boshqa tashkilotlar va korxonalariga sotish yoki berishda paydo bo'lgan zararlar; nomoddiy aktivlarni boshqa korxonalar va tashkilotlarga sotish yoki berishda paydo bo'lgan zararlar; aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklardan ko'rilgan zararlar, jarimalar, penyalar va neustoykalar to'lash bilan bog'liq zararlar; asosiy faoliyatda olingan foyda, boshqa daromadlar va boshqa tushumlar hisobidan zaxira qilinib, boshqa korxonalar va tashkilotlar (chet elliklarni ham qo'shib), shuningdek ayrim shaxslar bilan hisob-kitoblarga doir shubhali qarzlarning summalari; "Boshqa daromadlar va tushumlar"ga quyidagilar kiradi: korxonaning asosiy fondlari va boshqa mulklarni sotishdan olingan daromadlar; davro muddati o'tib ketgan, kreditor va deponentga o'tkazilgan qarzlarni hisobdan o'chirishdan olingan daromadlar; undirilgan jarimalar, penyalar, neustoykalar va xo'jalik shartnomasining boshqa shartlarini buzganligi uchun undiriladigan boshqa turdagi sanksiyalar; korxonalar ichidagi oshxonalar; yordamchi xo'jaliklar va boshqalaridan olinadigan daromadlar va sarflar. Bunda moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarni hisobga oladigan schyotlar (9500) guruhi bo'yicha 9510, 9520, 9530, 9540, 9550 va 9590 schyotlari ochilib, daromadlar tegishli tarzda hisobga olib borilganligi tekshiriladi. Moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan zararlarni tekshirishda auditor moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni hisobga oladigan 9610, 9620, 9630 va 9690 schyotlarining ma'lumotlarini ham tekshiradi.

Shuningdek, favqulodda olingan foydalar ham tekshirilishi lozim. Bunda auditor 9710-"Favqulodda olingan foyda" va 9720-"Favqulodda ko'rilgan zarar" schyotlarining analitik hisobi va dastlabki hujjatlar ma'lumotlarini tekshirilishi zarur. "Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga qo'shiladigan, mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat) ko'rsatish xarajatlarning tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ning sharhlarida ko'rsatilishicha, xorijiy davlatlar amaliyotida favqulodda zararlar quyidagilar kiradi: tabiiy ofatdan ko'rilgan katta yo'qotishlar; urush va boshqa siyosiy notinchliklar natijasida ko'rilgan yo'qotishlar; mamlakat qonunchiligining o'zgarishi natijasida ko'rilgan yo'qotishlar, masalan, xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish (natsionalizatsiya) haqida qaror qabul qilish, ayrim faoliyat turlarini taqiqlash va boshqalar. Bunda auditor quyidagilarni tekshirishi lozim: favqulodda yo'qotishlar metrologik, seyslik va boshqa tegishli xizmatlarni sodir bo'lgan tabiiy ofatlar to'g'risidagi ma'lumotlari bilan tasdiqlanishi; korxonalar mulklarifavqulodda hodisalardan sug'urta qilinganligi va boshqalar.

Auditor moliyaviy natijalarni tekshirishda quyidagilarni ham aniqlashi lozim: byudjetga soliqning o'z vaqtida va to'liq to'lanishi; shubhali qarzlarning bo'yicha zaxiralar yaratilishining to'g'riligi; foydaning korxonalar ishtirokchilari o'rtasida o'z vaqtida va to'g'ri taqsimlanishi; aksiyadorlarga dividendlar to'lashning to'g'riligi.

Agar hisonbot yilining oxiriga kelib debitor qarzlarning inventarizatsiya materiallarni tahlil qilish natijasida shubhali debitor qarzlarning aniqlansa, unda korxonalar shu miqdorda shubhali qarzlarning bo'yicha zahira yaratishi mumkin. Bunda qarzdorning moliyaviy holati, to'lov qobiliyati va qarzlarni hisobdan o'chirishning to'g'riligi;

ishlatilmagan shubhali qarzlar bo'yicha zaxira summalarini tegishli yil foydasiga qo'shilishi.

Ayrim tarmoqlarning korxonalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ruhsati bilan ta'mirlash ishlari o'tkazish uchun mablag'lar zahirasi yaratadilar. Agar ta'mirlanadigan va shu jarayonda ishlatiladigan bo'lsa, bu zaxiraga qilinadigan ajratmalar mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) xarajatlari tarkibiga "boshqa xarajatlar" elementi bo'yicha qo'shiladi. Zaxira hajmi ta'mirlash ishlari uchun qilinadigan xarajatlar qiymatidan kelib chiqqan holda qniqlanadi.

Auditor ta'mirlash ishlari uchun zaxiralarning to'g'ri tashkil etilishi va ishlatilishini tekshirishi zarur. Bunda quyidagilar tekshiriladi : Zahira yaratish uchun moliya Vazirligining ruhsat borligi; ta'mirlash o'tkazish uchun smeta va titul ro'yhati; zaxiralardan foydalanishni hisobda aks ettirishning to'g'riligi; to'laligi va o'z vaqtidaligi; foydalanilmagan zahira qoldig'i qolganda "storono" qilish yo'li bilan zaxiralarni yopish; debet 2010,2310,2510 kredit 8910 "Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlar zaxirasi" ("Asosiy vositalarni ta'mirlashga doir kelgusidagi xarajatlar zaxirasi" analitik schyoti).

II Bob. Ma'suliyati cheklangan jamiyatda moliyaviy natijalarning hisobga olish va auditini tashkil etishning holati.

2.1. Jamiyatda moliyaviy natijalar hisobining yuritilishi.

Foyda ijtimoiy ishlab chiqarish hamma bosqichlarining iqtisodiy kategoriyasidir. Qayerda ijtimoiy ishlab chiqarish barpo etilgan bo'lsa, unda qatnashuvchilarning mehnati ikkiga bo'linadi – 1-qism ishlab chiqarish, 2-qism esa molkdorlarni, davlat va ijtimoiy ehtiyojlarni qoplashga safarbar etiladi.

Foyda iqtisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida o'zining eg yuqori ahamiyatiga bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyoti davrida ko'tariladi. Foydani barpo etish, uni realizatsiya qilish bu kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishni, qiymat qonui va xo'jalik yuritish usuli sifatida foydalaniladigan xo'jalik hisobotining obyektiv talabidir.

Ma'lumki xo'jalik hisobining talablaridan biri, asosiy talabi- bu korxonalar faoliyatining rentabillik bo'lishi ya'ni korxonalar o'z faoliyatini foyda olish bilan yakunlashidir. Foyda- absolyut ko'rsatkich bo'lib, u korxonalar faoliyati samarasini ifodalaydi. Foyda korxonalar faoliyatining har xil yo'nalishlarini moliyaviy yakunidir. Shu sababli foyda turli xil shakllarda bo'lishi mumkin.

Sotilgan mahsulotlardan olingan yalpi foyda foydaning asosiy shakli bo'lib, u sotishdan olingan tushumdan sotilgan mahsulot tannarxini chegirish yo'li bilan aniqlanadi. Sotilgan mahsulotdan olingan sof tushumni aniqlash uchun sotilgan mahsulotlardan olingan yalpi tushumdan davlat byudjetiga o'tkazilgan qiymatga solinadigan soliq, aksiz soliqlari va eksport-import to'lovlari olib tashlanadi.

Asosiy faoliyatdan olinadigan foyda sotilgan mahsulotlardan olingan foydadan davr xarajatlarini olib tashlash va asosiy faoliyat bilan aloqador boshqa daromadlar, zararlarini e'tiborga olish bilan aniqlanadi.

Davr xarajatlari deganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi va o'z tarkibiga boshqaruv xarajatlarini, mahsulotni sotish xarajatlarini, va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlarni oladi.

Sof foyda- bu korxonalarining o'zida qoladigan daromad bo'lib, u korxonalarining ehtiyojlari uchun foydalaniladigan daromadlardir.

Umumman olganda, Qarshi shahar "Gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJ ning o'tgan 2007-2008- yillardagi moliyaviy holatiga nazar tashlasak, uning keyingi yillarda moliyaviy holati yomonlashib ketganligini biz yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asosan kuzatishimiz mumkin.

2.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qarshi shahar "Gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJ 2007-2008 yillarda jami aktivlari miqdori 198315.8 ming sumdan 203549.7 ming sum miqdorda o'zgarish sodir bo'lgan, bu o'tgan yilga nisbatan 93.9 %ni yoki 9413.2 ming sum miqdorda kamaygan. Keyingi yillarda jamiyatda uzoq muddatli aktivlari salmog'i doimiy ravishda kamayishi kuzatilgan. Buni sababi sifatida uzoq muddat xizmat qiladigan aktivlar o'z xizmat muddatini o'taganligi natijasida ularga amortizatsiya ajratmalari miqdorining keskin kamayib ketganligi (o'tgan yilga nisbatan 2.8 barobar ortiq) aytish mumkin. Agarda jamiyatning balansida nazar tashlansa, tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilish

natijasida xaridor va buyurtmachilardan kelib tushishi lozim bo'lgan mablag'larning o'z vaqtida tushmasligi oqibatida 34237.4 ming sumlik debitorlik qarzni vujudga kelishiga olib kelgan. Bu esa jamiyatning xo'jalik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shunga qaramasdan jamiyatning joriy aktivlari debitorlik qarzlari bilan hisoblaganimizda 14647.1 ming sumga ortganligini bu o'tgan 2007- yilga nisbatan 132.4 foizni tashkil etganligini guvohi bo'lamiz. Shu o'rinda balansning passiv tomoniga e'tibor qaratsa, jami majburiyatlar miqdori o'tgan 2007-yilga nisbatan 104.6 %ga yoki 2307 ming sum miqdordagi summaga ko'paygan. Ushbu majburiyatlar ko'payishiga o'z navbatida xodimlarning mehnat haqi bo'yicha qarzlarning oshishi, mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qarzlarning saqlab qolinayotganligi va boshqa turli qarzlari evaziga 52470.7 ming sum miqdorda saqlanib qolinmoqda. Majburiyatlar miqdori jamiyatning o'z mablag'lari manbalariga nisbatan 34.7% ulushni tashkil etmoqda. 2007-2008- yillarda jamiyatning jami aktivlari miqdori 5233.9 ming sumga yoki 102.6 %ga o'sganligini kuzatish mumkin.

Balans aktivlari 2007-2008-yillardagi o'zgarish holatini kuzatganimizda, jami aktivlar hajmi o'tgan yilning shu vaqtiga nisbatan 67.5 % miqdoriga teng bo'lganligini, bu jami aktivdan 66102.3 ming sumlik mablag' chiqib ketganligini ko'rish mumkin. Ushbu mablag'lardan, uzoq muddatli aktivlar 75 %, joriy aktivlar esa 49.5 % miqdorda bo'lganligini kuzatamiz. Mablag'larning bunday ko'rinish olishi hisobiga o'z mablag'lari 60.4 % ga, majburiyatlari jami esa 88.1 % darajasida pasayganligida deb hisoblash mumkin. Jamiyatning moliyaviy ahvoli bunday ko'rinish olishini tahlil etganimizda, keyingi yillarda asosiy vositalarga hisoblanayotgan amortizatsiya ajratmalarini nihoyatda ko'p ajratilayotganligini (2009-yil 1- yanvar holatida asosiy vositalarning boshlang'ich bahosi 219765.3 ming sum, eskirish summasi 111930.5 ming sum, qoldiq qiymati 107834.8 ming sum) 50.9% amortizatsiya ajratmalari hisoblangan. Bu esa o'z navbatida jamiyatning uzoq muddatli aktivlarini balans ma'lumotlari asosida ko'rganimizda jamiyatning tovar moddiy zahiralari miqdori 3 marta kamayganligini, xaridor va buyurtmachilardan qarzdorlik miqdori o'tgan yilning shu davriga nisbatan 50%ga kamaygan bo'lishiga qaramasdan 20852.0 ming sum holatida turganligini ko'rish mumkin. Majburiyatlar miqdori jamiyatning o'z mablag'lari manbalariga nisbatan 50.7 foiz ulushni tashkil etmoqda.

Qarshi shahar "Gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJ ning 2007-2009 – moliyaviy yilda taqsimlanmagan foyda salmog'ining o'zgarishlar tahlili²

2.1.2-jadval
Ming sum hisobida

Ko'rsatkichlar	2007	2008	2009	O'zgarish (2008- 2009)	Salmog'i %
Taqsimlanmagan foyda	4235.9	2926.9	5232.7	2945.8	200.6
O'z mablag'lari manbalari	148152.1	151079	91206.3	-59872.7	60.4
Taqsimlanmagan foydaning o'zmablag'lari	2.9	1.9	6.4		

manbalariga nisbatan ulushi (%)					
Jami passiv	198315.8	203549.7	137447.4	- 66102.3	67.5
Taqsimlanmagan foydaning jami aktivlarga nisbatan ulushi (%)	2.1	1.4	4.3		

(²Manba Qarshi shahar "Gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJ ning 2007-2009 – yillardagi yillik hisobot ma'lumotlari)

2.1.2- jadval ma'limotlarida aks ettirilishicha, jamiyatning 2007-2009- yillarda taqsimlanmagan foyda salmog'i hajmi turlicha tarzda bo'lganligini kuzatish mumkin. Bunga ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tannarxi, yangi texnologiyalarni jalb etish, ishchi va xizmatchilarning moddiy manfaatdorliklarining oshishi, mahsulot sifati, ishni to'g'ri tashkil etish kabi bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sir etuvchi omillarni hisobga olmagan holda korxonaning taqsimlanmagan foydasini tahlil etishga urinib ko'ramiz. Jadval ma'lumotlarida keltirilishicha, taqsimlanmagan foyda miqdori 2007-yilda 4235.9 ming sum bo'lgani holda, o'z mablag'lari manbasiga nisbatan 2.7% hajmiga, jami aktivlarga nisbatan taqqoslaganda esa 2.1 % ni tashkil qilgan. 2008-yil boshida taqsimlanmagan foyda miqdori 2926.9 ming sumni tashkil etgani holda, o'z mablag'lari manbasining 1.9%ga teng, jami aktivlarga nisbatan 1.4% miqdorda yetgan. Bu ko'rsatkichni o'tgan yilga nisbatan eng yuqori darajalaridan biri sifatida qayd etishimiz mumkin. 2009-yilgi taqsimlanmagan foyda miqdorini 2008-yilga nisbatan taqqoslaganimizda 2945.8 ming sum miqdorida foyda summasini ko'payganligini, o'z mablag'laridagi ulushi esa 6.4 foizga yetib qolganligini yoki jami aktivlardagi salmog'i 4.3 foiz darajasida bo'lganligini ko'rish mumkin.

Umumman olganda, taqsimlanmagan foyda salmog'ining bu darajada kam holatda bo'lishi sabablari sifatida, jahonda yuz berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta'siri, shuningdek moddiy texnik bazalarning eskirishini ko'rsatishimiz mumkin.

Ma'lumki, har bir xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatiga baho berish orqali uning qanday holatdaligini bilish mumkin. Har qanday investor ho'jalikning ushbu ko'rsatkichlariga qarab ular bilan hamkorlik qilishlari, investetsiya mablag'larini joylashtirishlari mumkin bo'ladi. Qarshi shahar "Gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJ ning 2007-2009 – moliyaviy natijalari holatini tahlil qilganimizda, quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik: jamiyatning 2007-2009-yillardagi moliyaviy natijalari yildan yilga yaxshilanib borishini kuzatish mumkin.

Qarshi shahar "Gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJ ning 2007-2009 – moliyaviy natijalari holati³

2.1.3-jadval
(ming sum hisobida)

Ko'rsatkichlar	2007	2008	2009	Farq	Salmog'i
Mahsulot sotishda tushgan tushum	189249	279306.9	301641.6	22344.7	108.6
Sotilgan mahsulot tannarxi	107167	71074.6	99492.3	28417.7	140.1
Mahsulot sotishdan olingan	82082	208232.3	202149.3	-6083	97.1

yalpi foyda					
Davr xarajatlari	73674.9	182960.8	153890.7	-29070.1	84.1
Asosiy faoliyat foydasi	8407.1	25271.5	48258.6	22987.1	191.0
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi	8407.1	25271.5	48258.6	22987.1	191.0
Daromad solig'i tugaguncha qadar foyda	8407.1	25271.5	48258.6	22987.1	191.0
Daromad solig'i	7554.2	22344.6	42385.9	20041.3	189.7
Hisobot davrining sof foydasi	1052.9	2926.9	5872.7	2945.8	200.6

(3manba-Qarshi shahar "Gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJ ning 2007-2009 – yillardagi yillik hisobot ma'lumotlari)

Jadval ma'lumotlariga tayangan holda tahlil etganimizda, shu narsaning guvohi bo'ldikki, jamiyat 2009-yilda jami hisobot davrining sof foydasi 5872.7 ming sumni yoki o'tgan 2008-yilga nisbatan 2 marta ortganligini kuzatish mumkin. O'tgan yilgan nisbatan mahsulot sotishdan tushgan tushum 108% o'tgani holda, sotilgan mahsulot tannarxi esa 140%ni tashkil etgan va shuning hisobiga mahsulot sotishdan tushgan tushum miqdori o'tgan 2008-yilga nisbatan 2.9%ga kam bo'lgan. Joriy 2009-yilda davr xarajatlari miqdorining 84.1 foizga ushlab qolinishi evaziga asosiy faoliyatdan olingan daromad miqdori 191%ga yetishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Qarshi shahar "Gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJda taqsimlanmagan foyda dinamikasi va ular tarkibining o'zgarishi hisob kitobi

2.1.4-jadval

Yillar	Taqsimlanmagan foyda		Barcha aktivlar		Taqsimlanmagan foydaning barcha aktivlardagi ulushi
	Summasi Mimg sum	O'zgarish sur'ati %	Summasi Mimg sum	O'zgarish sur'ati %	
2007	1052.9	100.0	198315.8	100.0	0.5
2008	2926.9	278.0	203549.7	102.6	1.4
2009	5872.7	200.6	137447.4	67.5	4.3

(4. manba- Qarshi shahar "Gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJ ning 2007-2009 – yillardagi yillik hisobot ma'lumotlari)

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning taqsimlanmagan foydasi 2008-yildagi 2007-yilga nisbatan 278.0 % ga , barcha aktivlarga nisbatan esa 1.4%ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar 2009-yilda 2008-yilga nisbatan 200.6%, aktivlardagi salmog'i 4.3 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jamiyatning oxirgi yillardagi taqsimlanmagan foydasi hajmi biroz oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2.2. Ma'suliyati cheklangan jamiyatda dividendlarni taqsimlash tartibi va ularni hisobga olish.

Korxonalar rahbariyati tomonidan dividendlar to'lash to'g'risida xabar qilingandan so'ng, ular joriy majburiyatlar sifatida aks ettirilishi lozim. Dividendlar qonun hujjatlariga muvofiq taqsimlanadi.

Dividendlar pul mablag'lari, tovar-moddiy boyliklari va aksiyalari bilan to'lanishi mumkin. Aksiyalar bilan to'lanadigan dividendlardan tashqari barcha dividendlar korxonaning xususiy kapitali kamayishiga olib keladi.

Dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilayotganda ularni to'lashga O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 223-1-son Qonunining 60-moddasi va 2001-yil 6-dekabrda "Ma'suliyati cheklangan hamda qo'shimcha MCHJlar to'g'risida"gi 310-II-son Qonunining 26-moddalarida nazarda tutilgan cheklashlarni yoddan chiqarmaslik lozim. Agar sof aktivlar qiymati jamiyatning ustav va zixira fondlari summasidan kam bo'lsa yoki to'lash natijasida kamaysa, dividendlar to'lanmasligi kerak. Sof aktivlarni baholash va ularni ustav kapitali miqdoriga muvofiq lashtirish to'g'risidagi qoida O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasida belgilangan. Ikkinchi va har bir keyingi moliya yili tugagach, jamiyat aksiyadorlarining tasdiqlashi uchun taklif qilingan yoki auditorlik tekshiruvi natijalariga ko'ra tasdiqlangan yillik buxg'alteriya balans ma'lumotlari bo'yicha buxgalter ushbu shartga rioya qilinganligini tekshirishi lozim. Agar jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondidan kam bo'lib chiqsa, jamiyat uning sof aktivlari qiymatidan oshmaydigan miqdorgacha o'z ustav fondini kamaytirish to'g'risida e'lon qilishi shart.

Biroq aksiyadorlik jamiyati yoki MCHJ kengashi, jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining qarori bilan dividendlar to'lab, sof foydani har chorakda, yarim yilda yoki yilda bir marta taqsimlasa, bunga O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 54-moddasi va "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunining 25-moddasi bilan ruhsat berilgan, u holda sof aktivlarni, dividendlar to'lash rejalashtirilayotgan har bir davrda baholash zarur.

14-son BHMS "Xususiy kapital to'g'risida hisobot"ning (AV tomonidan 07.04.2004 – yilda 1335-son bilan ro'yhatga olingan) 10-bandiga muvofiq sof aktivlar deganda xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lari bilan ta'minlangan uzoq muddatli va joriy aktivlari qiymati tushiniladi. Sof aktivlarning miqdori hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi: aktivlar qiymatidan qarz majburiyatlari summasi chiqarib tashlanadi (balans aktivining 400 -satri minus balans passivining 770-satri).

Agar sof aktivlarni baholash ularning ustav kapitali miqdoridan kamligini ko'rsatsa, buxgalter jamiyat rahbariyati (mulkdorlari)ni xabardor qilishi shart. Rahbariyat esa jamiyat mulkdorlari qaroriga ko'ra tashkiliy-huquqiy tusdagi choralarni ko'rishi zarur. 1-dan, jamiyatning ustav fondi kamaytirilishi to'g'risidagi qaror qabul qilingandan boshlab 30 kundan kechiktirmay kreditorlarni xabardor qilish lozim. (O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning

huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 23-moddasi va "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida "gi Qonunning 19-moddasi). 2-dan, jamiyat ustav kapitalidagi o'zgartirishlarni tayyorlash va belgilangan tartibda ro'yhatdan o'tkazilishi kerak. Ushbu barcha tamoyillardan keyin va faqat o'zgartirilgan ta'sis hujjatlari bo'lgandagina buxgalter ustav kapitali sof aktivlar qiymatigacha kamayganini aks ettiradi.

Ustav kapitalining sof aktivlar miqdorigacha kamayishi quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Ustav kapitalining sof aktivlar miqdorigacha kamayishi	
Debet	Kredit
8300-"Ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar"	8710-"Hisobot davrining qoplanmagan zarari"

Korxonaning dividentlarini to'lash bo'yicha majburiyatlarni pul mablag'lari bilan to'lanishi bo'yicha buxgalteriya yozuvlari quyidagicha bo'ladi:

Korxonaning dividentlarini to'lash bo'yicha ta'sischilar oldidagi joriy majburiyatlarni pul mablag'lari bilan qoplanishi		
	Debet	Kredit
Dividentlarni to'lash e'lon qilingandan so'ng ular bo'yicha joriy majburiyatlar aks ettiriladi	8710-"Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi(qoplanmagan zarari)"	6610-"To'lanadigan dividendlar"
Dividentlar ko'rinishidagi daromadlardan soliq summasi hisoblanadi(10% stavka bo'yicha)	6610-"To'lanadigan dividendlar"	6410-"Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz(turlari bo'yicha)"
Dividentlardan hisoblangan soliq summasi o'tkazildi	6410-"Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz(turlari bo'yicha)"	5110-"Hisob-kitob schyoti"
Dividentlar pul mablag'lari bilan to'landi	6610-"To'lanadigan dividendlar"	5010-"Milliy valyutadagi pul mablag'lar" 5110-"Hisob-kitob schyoti"

Soliq kodeksining 129 va 156-moddalariga muvofiq dividendlarga O'zbekistondagi to'lov manbaida soliq solinadi va ular jami daromaddan chegiriladi. To'lov manbaida foyda solig'ini ushlab qolish va byudjetga o'tqazish uchun daromad to'lovchi yuridik shaxs javobgar bo'ladi.

Dividentlar Tovar-moddiy boyliklar: asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, materiallar, tayyor mahsulotlar, tovarlar bilan berilishi mumkin. Ularni berish hisobda tovar-moddiy boyliklarning sotilishi sifatida aks ettiriladi. Bunda korxonalarda sotish operatsiyalari singari soliq majburiyatlari paydo bo'ladi.

Korxonaning ta'sischilar oldidagi dividendlarni to'lash bo'yicha joriy majburiyat-

larning tovar-moddiy boyliklari bilan to'lanishi		
	Debet	Kredit
Divedendlarni to'lash e'lon qilingandan so'ng ular bo'yi-cha joriy majburiyatlar aks ettiriladi	8710-"Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi(qoplanmagan zarari)"	6610-"To'lanadigan dividendlar"
Divedendlar ko'rinishidagi daromadlardan soliq summasi hisoblanadi(10% stavka bo'yicha)	6610-"To'lanadigan dividendlar"	6410-"Byudjetga to'lov-lar bo'yicha qarz(turlari bo'yicha)"
Divedendlardan hisoblangan soliq summasi o'tkazildi	6410-"Byudjetga to'lov-lar bo'yicha qarz(turlari bo'yicha)"	5110-"Hisob-kitob schyoti"
QQS hisoblandi	6610-"To'lanadigan dividendlar"	6410-"Byudjetga to'lov-lar bo'yicha qarz(turlari bo'yicha)"

Korxonaning ta'sischi oldidagi dividendlarni to'lash bo'yicha joriy majburiyat-larning tovar-moddiy boyliklari bilan to'lanishi		
	Debet	Kredit
Divedendlarni tovar-moddiy boyliklari bilan to'lanishi aks ettiriladi	6610-"To'lanadigan dividendlar"	9010-"Tayyor mahsulot-larni sotishdan daromad" 9020-"Tovarlarni sotish-dan daromadlar" 9210-"Asosiy vositalar-ning chiqib ketishi" 9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi"
Divedendlar sifatida berilgan tovar-moddiy boylik-larning tannarxi hisobdan chiqarildi	9110-"Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi" 9120-"Sotilgan tovarlar-ning tannarxi" 9210-"Asosiy vositalar-ning chiqib ketishi" 9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi"	2810-"Ombordagi tayyor mahsulotlar" 2910-"Ombordagi tovarlar" 0100-"Asosiy vositalar" 0400-"Nomoddiy aktiv-lar"
Divedendlar sifatida berilgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar obyektlari bo'yicha hisoblangan amortizatsiya hisobdan chiqarildi	0200-"Asosiy vositalar-ning eskirishi" 0500-"Nomoddiy aktiv-larning amortizatsiyasi"	9210-"Asosiy vositalar-ning chiqib ketishi" 9220-"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi"

Ushbu holda ham 10%stavka bo'yicha dividendlardan soliq hisoblanishi kerak hamda aksiyadorlar (jismoniy shaxslar) bu soliq summasini korxonaning kassasiga

topshirishlari yoki hisoblangan dividendlardan 10%ga kam summadan olishlari kerak.

Xususiy korxonalar ham 6610-”To’lanadigan dividendlar” schyotini, undagi kreditlangan summalarga soliq solinmagan holda ishlatishlari mumkin.

Dividendlar aksiyalar bilan to’langanda jamiyatning biror-bir aktivlari taqsimlanmaydi, har bir aksiyador esa jamiyatda ishtirok etish bo’yicha bir xil mutanosib ulushga ega bo’ladi, bunda aksiyador ulushining balans qiymati dividendlar e’lon qilinishidan oldin va undan keyin ham o’zgarmaydi. Mazmuniga ko’ra aksiyalar bilan dividendlarni to’lash taqsimlanmagan foydani kapitalashtirish va kiritilgan kapitalning mos ravishda kamayishini bildiradi. Nominal qiymat va umumiy aksiyadorlik (xususiy) kapitalni aksiya bilan to’lanadigan dividendlar chiqarilgandan so’ng o’zgarmay qoladi.

Aksiyalar ko’rinishida olingan dividendlar jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni to’lashdan ozod qilinadi

Korxonaning ta’sischi oldidagi dividendlarni to’lash bo’yicha joriy majburiyatlarning aksiyalar bilan to’lanishi		
	Debet	Kredit
Dividendlarni to’lash e’lon qilingandan so’ng ular bo’yicha joriy majburiyatlar aks ettiriladi	8710-”Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi(qoplanmagan zarari)”	6610-”To’lanadigan dividendlar”
Dividendlar aksiyalar bilan to’landi	6610-”To’lanadigan dividendlar”	8310-”Oddiy aksiyalar” 8320-”Imtiyozli aksiyalar”

Xususiy korxonada uning ta’sischisi bo’lib barcha soliqlar va yig’imlar to’langandan so’ng qoladigan sof foydaning egasi(mulkdori) hisoblanadi. Shuning uchun xususiy korxonaning ta’sischilari soliqlar to’langandan so’ng qolgan mablag’larga tovar-moddiy boyliklar xususiy korxonaning balans schyotlariga kirim qilinmasligi kerak, ularning kelib-tushishi balansdan tashqari 002-”mas’ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy boyliklar” schyotida yoki maxsus ochilgan 015-”Xususiy korxonaga egasiga tegishli bo’lgan tovar-moddiy boyliklar” schyotida aks ettirilishi lozim.

Buxgalteriya yozuvlari quyidagicha bo’ladi:

Xususiy korxonaga ta’sischilari oldidagi dividendlar to’lash bo’yicha majburiyatlarni tovar-moddiy boyliklari bilan sundirilishi		
	Debet	Kredit
Xususiy korxonaga mulkdoriga dividendlarni hisoblab yozish	8710-”Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi(qoplanmagan zarari)”	6610-”To’lanadigan dividendlar”
Tovar-moddiy boyliklar uchun to’lov	6010-”Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to’lanadigan schyotlar”	5110-”Hisob-kitob schyoti”
Tovar-moddiy boyliklar	002-”Mas’ul saqlashga	

ishonchnoma bo'yicha olindi	qabul qilingan tovar-moddiy boyliklar"	
Tovar-moddiy boyliklar berildi		002-"Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy boyliklar"
Ta'rischilarga divedendlar bo'yicha qarz to'landi	6610-"To'lanadigan divedendlar"	6010-"Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar"

2.3. Jamiyat daromadlaridan foydalanishni hisobga olish va auditini tashkil etish.

Har bir aksiyadorlik jamiyatlari o'z moliyaviy faoliyatlari yakuniy natijalari-dan kelib chiqqan holda o'zlariga tegishli bo'lgan foyda miqdoridan ma'lum maqsadlar uchun foydalanadilar. Avvalombor foyda ishlab chiqarishni yanada kengaytirish maqsadida, ishchi xodimlarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun satflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan 1999-yil 5-fevral №54-sonli qarori asosida "Mahsulot(ishlar va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra korxonalar va tashkilotlarning foydasi quyidagi shakllarda hisobga olinishi belgilab berilgan:

- mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda. Bu sotishdan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini olish bilan aniqlanadi;
- asosiy faoliyatdan olingan foyda- bu mahsulotdan sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki zararlarining yig'indisi sifatida aniqlanadi;
- xo'jalik faoliyatidan olingan foyda(zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan summasiga moliyaviy faoliyatdan olingan foyda summasiga moliyaviy faoliyatdan olingan foyda(zarar)lar yig'indisi sifatida aniqlanadi;
- soliq to'langunch olingan foyda, u umumxo'jalik faoliyatidan olingan foydaga favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan foyda(zarar)lar yig'indisi sifatida aniqlanadi;
- yilning sof foydasi, u soliq to'langandan so'ng xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi

Foydaning taqsimlanishi deganda uning iste'mol va jamg'arishga yo'naltirilishi, joriy davr foydasining soliqlar to'lovi, ishlab chiqarishni rivojlantirish va zaxiralashga hamda kapital egalari o'rtasidagi shartlar, kelishuvlarga binoan taqsimlanishi tushuniladi.

Foyda quyidagicha taqsimlanadi:

- soliq qonunchiligiga muvofiq davlat byudjetiga soliqlar, yig'imlar va to'lovlarga;
- ishlab chiqarishni rivojlantirish va zaxiralashga;
- aksiya va kapital egalari divedendlar to'lashga;

Korxonalar o'zining hisob foydasidan, avvalo, davlat oldida hisob beradi va o'zining ixtiyorida hamda asarufida bo'lgan foyda summasini aniqlaydi. Foydadan olingan soliqlar qat'iy stavkalarda va foizlarda undiriladi. Hisob foydasining qolgan qismi korxonalar sof foydasi sifatida uning erkin belgilovchiga (aksionerlar umumiy yig'ilishining qarori va ichki nizomiga) muvofiq taqsimlanadi.

Sof foydadan ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga oid sarflar aksionerlarning umumiy yig'ilishida hisob berish hamda ularning roziligini olish asosida belgilanadi.

Sof foydaning qolgan qismi chiqarilgan aksiyalarning turiga qarab va ularning imtiyozli shartlari asosida taqsimlanadi. Dastlab imtiyozli aksiyalarga oldindan kafolatlangan foizlarda to'lovlar hisobga olinadi, so'ngra oddiy aksiya egalari dividend foizlari va summalari e'lon qilinadi. Foydaning taqsimlanmagan qismi korxonalar uchun taqsimlanmagan foyda sifatida, agar korxonalar nochor axvolda bo'lsa, qoplanmagan zarar sifatida keyingi hisobot yiliga o'tkaziladi.

Korxonalarining faoliyatiga baho berishda rentabillik ko'rsatkichi alohida o'rin egallaydi. Korxonalar faoliyatiga sarflangan sarmoyalarning o'zini o'zi qoplashini aniqlashda rentabillik ko'rsatkichi muhim hisoblanadi. SSSR davrida xalq xo'jaligi miqyosida korxonalarining o'zini o'zi qoplash muddati sifatida 7-9 yil qabul qilingan edi. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonalarining yillik rentabillik darajasi 12-14 foizdan kam bo'lmasligi belgilangan edi.

Hozirgi paytga kelib hamma korxonalar faoliyatida kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish amalga oshirilishi, moliyalashtirish kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak, ya'ni olingan foyda hisobidan ishlab chiqarishni kengaytirib, uning texnikaviy darajasini ko'tarib bo'rish lozim. Buning uchun, ya'ni o'zini-o'zi moliyalashtirish uchun korxonaning rentabillik darajasi 20-25dan kam bo'lmasligi kerak.

Qarshi shahar "Gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJ ning 2009-2010 – yillardagi rentabillik darajasi

Ko'rsatkichlar	2009	2010	Farq	Salmog'i
Mahsulot sotishdan tushgan tushum	279306.9	301641.6	22334.7	108.0
Sotilgan mahsulot tannarxi	71074.6	99492.3	28417.7	140.0
Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda	208232.3	202149.3	-6083	97.1
Mahsulot sotish rentabilligi%	292.9	203.2	-89.8	69.4
Davr xarajatlari	182960.8	153890.7	-29070.1	84.1
Asosiy faoliyat foydasi	25275.1	48258.6	22987.1	191.0
Asosiy faoliyat rentabilligi,%	81.9	79.8	-2.2	97.3
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi	25271.5	48258.6	22987.1	191.0
Daromad solig'i to'langunga qadar foyda	25271.5	48258.6	22987.1	191.0
Daromad solig'i	22344.6	42385.9	20041.3	189.7
Hisobot davrining sof foydasi	2926.9	5872.7	2945.8	200.6
Hisobot davri rentabilligi	75.3	68.3	-7.0	90.7

(Manba Qarshi shahar "Gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJ ning 2007-2009 – yillardagi yillik hisobot ma'lumotlari)

2.3.1- jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning foydalilik darajasi 2009 va 2010-yillarda ancha yuqori ko'rsatkichlar darajasida bo'lishiga erishilgan. Korxonaning har bir sohasi faoliyati bo'yicha rentabilligini tahlil etilsa, eng yuqori natija mahsulot sotishdan olingan natija bo'lib hisoblanadi. Chunki, oxirgi ikki yillik ma'lumotlarni kuzatilganda ham faqat ushbu faoliyat natijasida foydalilik darajasini yuqoriligini kuzatilgan. Raqamlarga murojaat etilsa, 2010-yil 1-yanvar holatida

mahsulot sotishdan olingan rentabillik 203.2% (o'tgan yilning shu vaqtida 81.9%), asosiy faoliyat rentabilligi 79.8%(o'tgan yilning shu vaqtida 81.9%), hisobot davri bo'yicha rentabillik darajasi 68.3%(o'tgan yilga nisbatan 75.3%) bo'lganligi kuzatiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda baholasak, jamiyatning rentabillik darajasi ancha yuqori sur'atlarda turganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu natijalardan korxonada ish samarali tashkil etilgan, bugungi kun raqobatiga bardosh bera oladi.

Ma'lumki, har bir korxonada o'z ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda olgan daromadlari hisobidan turli hil maqsadlar yo'lida xarajatlarni amalga oshiradi. Jumladan, ishchi va xizmatchilarni moddiy qo'llab-quvvatlash uchun ish haqlariga qo'shimchalar, yaxshi dam olib xordiq chiqarishlari uchun turli xil oromgoh va sanatoriyalarga yo'lanmalar berish, uy-joylar qurish, obodonlashtirish ishlarida faol qatnashish, ishlab chiqarish texnologiyalarni zamonaviylashtirish, homiylik ishlarini olib borish, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish kabi ishlarni bajarish yo'lida sarf etadilar.

Ushbu sarf etiladigan xarajatlar bilan daromadlar orasidagi bog'liklarni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin.

Qarshi shahar "gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJning 2009-yil yakuniy moliyaviy natijalarining bog'liqligi holatida

2.3.2-jadval
(ming sum hisobida)

	(Yalpi daromad) 202149.3		
(Moddiy xarajat) 29847.7	(mehnatga haq to'lash) 69644.6	(foйда) 48258.6	
(mahsulot tannaxi) 99492.3		(sof foyda) 5872.7	(daromad solig'i) 42385.9
(mahsulot sotishdan tushgan sof tushum) 301641.6			

(Manba Qarshi shahar "Gazkomserviz ilmiy texnik metrologik" MCHJ ning 2007-2009 – yillardagi yillik hisobot ma'lumotlari)

Biz yuqoridagi 2.3.2-jadval ma'lumotlariga asoslangan holda korxonaning 2010-yil 1-yanvar holatidagi daromad va xarajatlarning bog'liqligini kuzatish mumkin. 2009-yil yakuniga ko'ra jamiyatda ish bajarishdan jami 301641.6 ming sum miqdorida mablag' kelib tushgan bo'lib, shundan 99492.3 ming sumni bajarilgan ish tannarxi tashkil etadi, 48258.6 ming sum esa ish bajarishdan olingan foyda miqdorini tashkil etadi yoki tushumning 202149.3 ming sumi jamiyatning yalpi daromadini, 48258.6 ming sumi esa korxonaning sof foydasini bildiradi.

Korxonaning ko'p yillik tarixiga nazar tashlansa ushbu korxonada tomonidan ko'pgina xayrli ishlar olib borilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Jamiyatning ko'p yillardan beri ishlab kelayotgan qurilmalaridagi xizmat muddatini o'tagan asbob-uskunalarini o'z vaqtida yangisiga almashtirish, ta'mir -talab jihozlarni tez va sifatli sozlab, ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligini ta'minlab berish doimo korxonada rahbariyati, mutaxasislari diqqat-e'tiborida turibdi.

III BOB. Inqirozdan chiqishda moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirishning ahamiyati.

2008-yilda boshlangan va bugungi kunda ko'lam tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozga baho berar ekan, ko'pgina xalqaro ekspert va mutaxassislar bu inqirozning sabablari va yanada avj olishi bilan bog'liq prognozlarida javoblardan ko'proq savollarga duch kelishmoqda.

AQSH ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik natijasida inqiroz holati boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov to'lov kobilyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeklari va aksiyalarining bozor qiymati haloklatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Hozirgi vaqtda bir qator yetakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlarga doir materiallarni o'rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi xulosalarga kelmoqda.

Birinchi, moliya-banki tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishlarning muqarrarligi, investitsiya faollik qo'llashining cheklanishi talab va xalqaro savdo hajmini kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga tas'ir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofatlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda.

Ikkinchi, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliyaviy bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarni ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatli qog'ozlar bozorlarida turli spekulativ amaliyotlarga berilib ketgan baklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi.

Uchinchi, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lam va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. Ya'ni bu avvalo, ana shu davlatning moliya valyuta tizimi nechog'lik mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi, ularning chet el va korporativ bank tizimlariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin valyuta zaxirasining hajmi xorijiy kreditlarni qaytarish qobilyati va pirovard natijasida mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlilik darajasiga bog'liq.

To'rtinchi, jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengilashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umumman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq.

Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga ta'siri undan ko'rilayotgan zararining darajasi va ko'lam birinchi navbatda shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'lik barqaror va ishonchli ekanligiga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog'liqligini isbotlashga hojat yo'q deb o'ylayman.

Hech kimga sir emaski, bugun keng ko'lamga tarqalib borayotgan jahon moliyaviy inqirozining asosiy sabablaridan biri bu- banklar likvidligining zaifligi bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi, kredit bozoridagi tanglik, sodda qilib aytganda pul mablag'larining yetishmasligi bilan izohlanadi.

Shuni aytish kerakki, ko'p davlatlarning tashqi qarz masalasidagi puxta o'ylanmagan siyosati ularning iqtisodiyotini zaif, tashqi omillarga qaram, xatarli vaziyatlar oldida himoyasi va nochor ahvolga solib qo'yganini kuzatish qiyin emas.

O'zbekiston o'zning mustaqil taraqqiyoti davrida qisqa muddatli speulyativ kreditlardan voz kechib, chet el investetsiyarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jalb etish tamoyiliga doimo qilib kelmoqda.

Shuni ham qayt etishni istardikki, qarzni o'z vaqtida qaytara olishga qat'iy ishonchimiz va kafolatimiz bo'lmagan paytlarda muayyan loyihalarni kreditlash bo'yicha ayrim takliflardan voz kechgan holatlar ham bo'ldi.

Jahon bozorida talabning pasayib borishi natijasida O'zbekiston eksport qiladigan qimmatbaho va rangli metallar, paxta, uran,neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar va boshqa mahsulotlarning narxi tushib bormoqda bu esa, o'z navbatida xo'jalik yurituvchi subyektlar va investorlarning eksportdan oladiga tushumlari kamayishiga olib keladi, ularning foyda ko'rishiga va ishlab chiqarishi rentabilligiga oxir-oqibatda esa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarimizning o'sish sur'atlari vai qtisodiyotimizning boshqa tomonlariga salbiy ta'sir etadi.

Shubha yo'q jahon moliyaviy inqirozining ta'sini kamaytirishi va uning oqibatlarini bartaraf etish uchun bizda barcha zarur sharoitlar bor. Avvalo, keyingi davr mobaynida mamlakatimizning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatining puxta poydevorini, moliya bank tizimining ishonchli boshqaruv mehanizmlarini o'z vaqtida shakllantirib va mustahkamlab olganimiz hizmat qilishi muqarrar.

O'zbekiston respublikasi Prizedentining yaqinda qabul qilgan farmoni bilan jahon moliya inqirozining oqibatlariga qarshi kurash yo'lida bank va moliya tizimlariga qo'shimcha yordam berishi, iqtisodiyotning real sektori korxonalar va kompaniyalarning faolligini kuchaytirish va rag'batlantirishga qaratilgan chora tadbirlarni ishga solish ko'zda tutilgan.

Jahon iqtisodiy inqirozi davom etayotgan hozirgi sharoitida bunday o'zgarish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Nega deganda, bugun eksport asosan homashyo yetkazib berishdan iborat bo'lib dunyo bozoridagi narx – navo o'yinlarga haddan tashqari bog'lanib qolayotgani ayrim mamlakatlarga valyuta tushumlarini kaytiradigan moliyaviy barqarorlikning yomonlashuviga olib keladigan, iqtisodiyotni izdan chiqaradigan jiddiy faktorga aylanmoqda.

Bizning keyingi yillarda eksport sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgarishi va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarimizning natijasidir.

Birinchi navbatda iqtisodiyotning mafkuradan holi bo'lishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligida o'z ifodasini topgan progmatik iqtisodiy siyosat. Davlatning

bosh islohatchi vazifasini o'z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish islohatlarni bosqichma-bosqich va vazminlik bilan amalga oshirish kabi tamoyillar ayniqsa, dunyoda avj olib borayotgan moliyaviy iqtisodiy inqiroz sharoitida o'zining dolzarbligi va hoyotiyligini yanabir bor ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizni avvalo iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirishi va modernizatsiyalanishi uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi.

Muhtasar aytganda, inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirilishi boshlab yuborildi va 2009-yilning yanvar oyi yakunlari bu dastur ijrosi o'zning dastlabki, ammo ishonchli natijalarni berayotganligini ko'rsatmoqda.

Inqirozga qarshi choralar dasturining konkret bo'limlari- belgilangan kompleks chora-tadbirlar quyidagi asosiy vazifalarni hal etishga qaratilgan.

Birinchi, korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy moslashuvdan texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifa avvalo, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtirish va ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir.

Bu o'rinda ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash xalqaro sifat standartlariga o'tish bo'yicha qabul qilingan tarmoq dasturlarini amalgam oshirishni tezlashtirish vazifasi quyilmoqda. O'z navbatida bu mamlakatimizning ham tashqi ham ichki bopzorida barqaror mavqega ega bo'lishini ta'minlash imkonini beradi.

Ikkinchi- joriy konyuktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda ekport mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalgam oshirilishi va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish, xususan:

- aylanma mablag'larni to'ldirish uchun korxonalariga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70%idan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12oygacha bo'lgan muddatda imtiyozli kreditlar berish;

-tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xorijiy investetsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarini byudjetga barcha turdagi soliq va to'lovlardan-qo'shimcha qiymat solig'i bundan mustasno- ozod qilish muddatini 2012-yilgacha uzaytirilishi;

- banklar kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va horijiy qarzlarni miqdorini qayta ko'rib chiqish, byudjetga to'lanadigan to'lovlarning penyasidan kechish va boshqa muhim imtiyoz va preferensiyalar berish;

Uchinchi – qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatbardoshligi oshirish. Shu maqsadda 2008-yili xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiyotimizdagi yetakchi tarmoq va sohalarida mahsulot tannarxini kamiga 20% tushirishga qaratilgan chora tadbirlarni amalgam oshirish borasidagi takliflari ma'qullanganligini qayd etish lozim.

Shuningdek, tannarxni qaytarish bo'yicha belgilangan parametrlarga erishish uchun rahbar va ma'sul xodimlarni rag'batlantirishning ta'siriga mexanizmini ishlab chiqarish ko'zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, inqirozga qarshi choralar dasturida 2009-yilda barcha turdagi energiya manbalari va komunal xizmatlarning asosiy turlari bo'yicha narxlarni ko'tarishini cheklash, ya'ni ularni 6-8%dan oshirmaslik mexanizmi ishlab chiqilgan. Ayni vaqtda bu sohalarining ishlab chiqarish rentabiligini so'zsiz ta'minlash kerak.

To'rtinchidan- elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish energiya iste'molini kamaytirishi tejashning samarali tuzilishini joriy etish choralari amalga oshirish. Iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini yanada kuchaytirish, aholi farovonligini yuksaltirish ko'p jihatda bizning mavjud resurslardan 1-navbatda elektr va energiya resurslardan qanchalik tejamli foydalana olishimizga bog'liqdir.

Beshinchidan- jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Bu vazifani bajarishda ishlab chiqarishni milliy lashtirish dasturini kengaytirish katta o'rin tutadi. Ushbu dastur doirasidagi loyihalar hajmini 3-4marta ko'paytirish mo'ljallanmoqda.

Oziq - ovqat va boshqa iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarda mamlakatimiz ishlab chiqarish korxonalarini uchun keng ko'lamli rag'batlantirish nazarda tutilgan. Jumladan ular uchun 2012-yilning 1-yanvarigacha quyidagi soliq va bojxona imtiyozlari berilmoqda:

- go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirma va korxonalar uchun bo'shagan mablag'larni ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga maqsadli ravishda yo'naltirish sharti bilan yagona soliq to'lovi stavkasini 50% qisqartirish;
- tayyor nooziq ovqat tovarlarning muayyan to'lovlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarini foyda va mulk solig'idan, mikrofirma va kichik korxonalarini yagona soliq to'lovidan ozod qilish.

Dasturning principal ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi yo'nalishlarga yana bir bor e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

1-dan, mazkur dastur ijrosi bilan bog'liq qonunchilik va normative huquqiy bazani yanada takomillashtirish va mustahkamlash ya'ni qonunlar qabul qilish, tegishli qonun hujjatlariga, yer kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur.

Qishloqda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilamasini rivojlantirish suv resurslaridan oqilona foydalanishni tartibga solish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash masalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

2-dan, dasturda belgilangan vazifalar orasida qishloqlarimizda hayot sifatini tubdan yuksaltirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalgam oshirish principal muhit va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Buning uchun qishloq aholi punktlarini memoriy jihatdan loyihalashtirish va ko'rish ishlarini tashkil etish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish lozim. Hududlarning memoriy loyihaviy ko'rinishi bosh planlari ishlab chiqarishni ta'minlash, mintaqalarning iqlimi, demografik holati va boshqa

sharoitlarni hisobga olgan holda qishloq uylari va ijtimoiy inshootlarning unifikatsiya qilingan namunaviy loyihalarini tayyorlash darkor.

3-dan, dasturning asosiy vazifasi qishloqda sanoat ishlab chiqarishi va qurilishni jadal rivojlantirish, meva-sabzavot chorva mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan ixcham korxonalarini tashkil etish chora-tadbirlarni amalgam oshirishdan iborat.

4-dan, 2008-2012-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturida ko'zda tutigan chora-tadbirlar tizimining izchil amalgam oshirilishiga ya'ni ekin maydonlarning meliorativ ahvolini yaxshilash, faoliyat ko'rsatayotga irrigatsiya, melioratsiya obyektlarining tegishli texnik holatini ta'minlash, ixtisoslashgan suv xo'jaligi, qurilish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy texnika bilan jihozlash masalariga lohida e'tibor qaratish darkor.

Xulosa va takliflar.

Foyda ijtimoiy ishlab chiqarish hamma bosqichlarining iqtisodiy kategoriyasidir. Qayerda ijtimoiy ishlab chiqarish barpo etilgan bo'lsa, unda qatnashuvchilarning mehnati 2ga bo'linadi- 1-qism ishlab chiqarish qatnashuvchilarni shaxsiy ehtiyojlarini ta'minlash, qoplash uchun foydalaniladi. 2-qismi esa mulkdorlarni davlat ijtimoiy ehtiyojlarni qoplashga safar etiladi.

Foyda iqtisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida o'zining eng yuqori ahamiyatiga bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyoti davrida ko'tariladi. Foydani barpo etish, uni realizatsiya qilish bu kengaytirilgan qayta ishlab chiqishni, qiymat qonuni va xo'jalik yuritish usuli sifatida foydalaniladigan xo'jalik hisobotining obyektiv talabidir. Ma'lumki, xo'jalik hisobining talablaridan biri, asosiy talabi bu korxonalar faoliyatini rentabillik bo'lishi, ya'ni korxonalar o'z faoliyatini foyda olish bilan yakunlashidir. Foyda – absolyut ko'rsatkich bo'lib, u korxonalar faoliyati samarasini ifodalaydi. Foyda korxonalar faoliyatining har xil yo'nalishlarini moliyaviy yakunidir. Shu sababli foyda turli xil shakllarda bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999-yil 5-fevral 54-sonli qarori asosida "Mahsulot(ishlar va xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra korxonalar va tashkilotlarning foydasi quyidagi shakllarda hisobga olinishi belgilab berilgan:

- mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda. Bu sotishdan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini olish bilan aniqlanadi;
- asosiy faoliyatdan olingan foyda- bu mahsulotdan sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki zararlarning yig'indisi sifatida aniqlanadi;
- xo'jalik faoliyatidan olingan foyda(zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan summasiga moliyaviy faoliyatdan olingan foyda summasiga moliyaviy faoliyatdan olingan foyda(zarar)lar yig'indisi sifatida aniqlanadi;
- soliq to'langunch olingan foyda , u umumxo'jalik faoliyatidan olingan foydaga favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan foyda(zarar)lar yig'indisi sifatida aniqlanadi;
- yilning sof foydasi, u soliq to'langandan so'ng xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi.

Korxonalar o'zining hisob foydasidan, avvalo, davlat oldida hisob beradi va o'zining ixtiyorida hamda asarufida bo'lgan foyda summasini aniqlaydi. Foydadan olingan soliqlar qat'iy stavkalarda va foizlarda undiriladi. Hisob foydasining qolgan qismi korxonalar sof foydasi sifatida uning erkin belgilovchiga(aksionerlar umumiy yig'ilishining qarori va ichki nizomiga) muvofiq taqsimlanadi.

Sof foydadan ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga oid sarflar aksionerlarning umumiy yig'ilishida hisob berish hamda ularning roziligini olish asosida belgilanadi.

Sof foydaning qolgan qismi chiqarilgan aksiyalarning turiga qarab va ularning imtiyozli shartlari asosida taqsimlanadi. Dastlab imtiyozli aksiyalarga oldindan kafolatlangan foizlarda to'lovlar hisobga olinadi, so'ngra oddiy aksiya egalariga dividend foizlari va summalari e'lon qilinadi. Foydaning taqsimlanmagan qismi korxonaga uchun taqsimlanmagan foyda sifatida, agar korxonaga nochor axvolda bo'lsa, qoplanmagan zarar sifatida keyingi hisobot yiliga o'tkaziladi.

Hozirgi paytga kelib hamma korxonalar faoliyatida kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish amalgam oshirilishi, moliyalashtirish kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak, ya'ni olingan foyda hisobidan ishlab chiqarishni kengaytirib, uning texnikaviy darajasini ko'tarib boorish lozim. Buning uchun, ya'ni o'zini-o'zi moliyalashtirish uchun korxonaning rentabillik darajasi 20-25dan kam bo'lmasligi kerak.

Jamiyatning ko'p yillardan beri ishlab kelayotgan qurilmalaridagi xizmat muddatini o'tagan asbob-uskunalarini o'z vaqtida yangisiga almashtirish, ta'mir -talab jihozlarni tez va sifatli sozlab, ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligini ta'minlab berish doimo korxonaga rahbariyati, mutaxassislari diqqat-e'tiborida turibdi.

Biz obyektning tahlil etishimiz natijasida, shu narsaga guvoh bo'ldikki, korxonaning foydalilik darajasi 2009 va 2010-yillarda ancha yuqori ko'rsatkichlar darajasida bo'lishiga erishilgan. Korxonaning har bir sohasi faoliyati bo'yicha rentabillicini tahlil etilsa, eng yuqori natija mahsulot sotishdan olingan natija bo'lib hisoblanadi. Chunki, oxirgi ikki yillik ma'lumotlarni kuzatilganda ham faqat ushbu faoliyat natijasida foydalilik darajasini yuqoriligini kuzatilgan.

Taklif:

- Korxonaga o'zining eskirgan asbob-uskunalarini almashtirish choralarini ko'rishi kerak;
- O'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda issiqxona tashkil etishorqali yordamchi ishlab chiqarish turini yo'lga qo'yish lozim;
- Davr xarajatlarini tejash chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- Toshkent: O'zbekiston, 2003
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi-Toshkent O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi,2003
3. O'zbekiston Respublikasining soliq Kodeksi- Toshkent: O'zbekiston respublikasi Adliya Vazirligi, 2008
4. O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuni Toshkent: O'zbekiston
5. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar va fon birjasi to'g'risida"gi qonuni -Toshkent: 02.09.1993
6. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni Toshkent: 30.08.1996
7. O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni Toshkent: 09.12.1992
8. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuni Toshkent:22.07.2008
9. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyadorlar huquqlarini himoyalash to'g'risida"gi qonuni Toshkent:26.04.1996
- 10.O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni Toshkent: 30.08.2001
- 11.O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida"gi qonuni Toshkent: 25.04.1996
- 12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.11.2008 dagi "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yana oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4053-son farmoni
- 13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2008 dagi "Iqtisodiyot real sektori korxonalarni qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4058-son farmoni
- 14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.09.2006 dagi "Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-475-son qarori
- 15.Karimov.I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'lari va choralari"Toshkent: O'zbekiston.2009. 56-b.
- 16.Karimov.I.A."Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohatlar yo'lida izchil borish-asosiy vazifamiz"."Xalq so'zi" 10.02.2004
- 17.Karimov.I.A."Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohatlar yo'lida izchil borish-asosiy vazifamiz"."Xalq so'zi" 11.02.2006
- 18.Karimov.I.A. "Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investetsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida" Toshkent: O'zbekiston. 2005. 528-b
- 19.Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 29-yanvardagi "Davlat aktivlarini sotish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 27- sonli qarori

20. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi “Mahsulot(ish,xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to’g’risida”gi Nizom 54-sonli qarori.
21. Chjen V.A. “Osnovi privatizatsii” Toshkent.Goskomimushustva 1996-yil
22. Butuniv I.”Qimmatli qog’ozlar bozori” Toshkent: Konsauditinform 2001-yil
23. Tadbirkor qimmatli qog’ozlar bozorida: Savollar va javoblar. Tadbirkorlarga qo’llanma. Toshkent. O’zbekiston adliya vaziri
24. Chjen V.A. “Pul va Moliya bozorlari”-Toshkent:”Biznes Katolog” kompaniyasi nashri 1996.
25. Yuldoshev A., Sirojiddinov I.”Moliyaviy menejment”. Namangan,2001.
26. Haydarov N.”Moliya”- Toshkent, “Akademiya” 2001.
27. Sirojiddinov I, Yuldoshev A.,”Aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish va boshqarish” Namangan,2001.
28. Otaxonov F. “Aksiyadorlik jamiyatlari”- Toshkent:Adolat. 1996.
29. Umarov M. ,Eshboyev E. Ahmadjonov K. “Buxgalteriya hisobi” darslik – Toshkent: O’AJBNT Markazi.2004.
30. Do’stmurodov R.D. “Audit” darslik-Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2003.
31. Maslegenkov Yu.S. Finansoviy menejmentv komercheskom banke.- M.YUIITI.1996.
32. “Soliq solish va buxgalteriya hisobi” 1-12. 2009
33. ”Pul,kredit va bank” 1-12. 2009.
34. ”O’zbekiston iqtisodiy Axborotnomasi”1-12. 2009.
35. Qarshi shahar ”Gazkomserviz ilmiy texnik metrologik”MCHJ ning 2007-2009 – yillardagi yillik hisobot ma’lumotlari
36. www.cb.uz
37. www.mikrokreditbank.uz
38. www.pul.uz
39. www.uzbekembassy.org
40. www.mba.uz